

Asosiy vositalarning holati va harakatini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom

Asosiy vositalarning holati va harakatini hisoblash bo'yicha Uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) Milliy hisoblar tizimi – 2008 (keyingi o'rinlarda – MHT – 2008) yo'riqnomasi, shuningdek, Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida asosiy vositalar balansini shakllantirish maqsadida tayyorlangan va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi mutaxassislari tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan.

Uslubiy nizom tarmoq tasniflagichi sifatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – IFUT-2)dan foydalangan holda, asosiy vositalarning holati va harakatini yillik davriylikda hisoblashni ko'zda tutadi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi hamda u GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi:

aktiv – mulkning iqtisodiy egasiga ma'lum vaqt davomida egalik qilish yoki undan foydalanish natijasida iqtisodiy naf yoki bir qator iqtisodiy foyda keltiradigan jamg'arilgan zaxiralar qiymati;

nomoliyaviy aktivlar – ishlab chiqarilgan va ishlab chiqarilmaydigan aktivlarni o'z ichiga oluvchi aktivlar;

ishlab chiqarilgan aktivlar – MHT – 2008 ning ishlab chiqarish chegarasi doirasiga kiruvchi ishlab chiqarish jarayonlari natijasida yuzaga keladigan moliyaviy bo'lmagan aktivlar (asosiy fondlar, moddiy aylanma vositalar, qimmatbaho buyumlar);

ishlab chiqarilmaydigan aktivlar – ishlab chiqarish jarayonlarining natijasi bo'lmagan nomoliyaviy aktivlar (tabiiy resurslar; shartnomalar, ijara shartnomalari va litsenziyalar; sotib olingan gudvill va marketing aktivlari);

asosiy vositalar – ishlab chiqarish jarayonlarida bir yildan ortiq vaqt davomida qayta-qayta yoki uzluksiz foydalaniladigan ishlab chiqarilgan aktivlar;

boshlang'ich qiymati – asosiy vositalarni sotib olish, yetkazib berish, o'rnatish, montaj qilish va foydalanishga yaroqli holatga keltirish bilan bevosita bog'liq xarajatlarni o'z ichiga olgan holda, asosiy vositalar sifatida buxgalteriya hisobiga qabul qilingan qiymat;

qoldiq qiymat – asosiy vositalarning buxgalteriya hisobida aks ettirilgan boshlang‘ich qiymati bilan asosiy vositalarning yig‘ilgan amortizatsiyasi o‘rtasidagi farq;

asosiy vositalarning kelib tushishi – hisobot yilida kelib tushgan (yangi yoki ilgari foydalanilgan) asosiy vositalarning qiymatini, shuningdek, ularni qayta baholash qiymatini aniqlash;

yangi asosiy vositalarni ishga tushirish – qurilishi tugallangan va (yoki) belgilangan tartibda foydalanishga qabul qilingan qurilish obyektlarining qiymatini aniqlash; mashinalar, uskunalar, transport vositalari va boshqa turdagi yangi asosiy vositalar;

asosiy vositalarning chiqib ketishi – tugatilgan (hisobdan chiqarilgan), sotilgan, chiqib ketgan va tabiiy ofatlar natijasida tasarrufdan chiqarilgan asosiy vositalarning qiymatini aniqlash;

asosiy vositalarning tugatilishi (hisobdan chiqishi) – hisobot yilida tugatilgan (hisobdan chiqqan) asosiy vositalarning qiymatini aniqlash;

asosiy vositalarning amortizatsiyasi – asosiy vositalar qiymatini ulardan foydalanish muddati davomida ishlab chiqarilgan (bajarilgan, ko‘rsatilgan) mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga o‘tkazish jarayoni;

asosiy vositalarning eskirishi – hisobot yilining oxirida hisoblangan amortizatsiyaning yillik yig‘indisini qo‘shgan holda asosiy vositalarning eskirishi sababli qiymatining kamayishi;

asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti – yil davomida ishga tushirilgan yangi asosiy vositalar qiymatining yil oxiridagi jami asosiy vositalar qiymatiga nisbati;

asosiy vositalarning chiqib ketish (tugatilish) koeffitsiyenti – tugatilgan asosiy vositalar qiymatining yil boshida mavjud bo‘lgan jami asosiy vositalar qiymatiga nisbati;

asosiy vositalarning eskirish darajasi asosiy vositalarning boshlang‘ich (qayta tiklash) va qoldiq qiymati o‘rtasidagi farqning yil oxiridagi boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatiga nisbati orqali hisoblanadi.

2-bob. Asosiy vositalar balansini shakllantirish

2. Asosiy vositalar balansini yuridik shaxslarga, shu jumladan respublika va mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan yuridik shaxslarga, jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan asosiy vositalarning hisobot yili boshi va oxiridagi qiymatini hamda hisobot yilidagi o‘zgarishini aks ettiradi. Asosiy vositalar balansini iqtisodiy faoliyat turlari va mulkchilik shakllari bo‘yicha joriy narxlarda shakllanadi.

3. Asosiy vositalar balansini har yili Statistika dasturida ko‘zda tutilgan muddatlarda shakllantiriladi.

Asosiy vositalarning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati bo‘yicha balans jadvali mazkur Uslubiy nizomning 1-ilovasiga muvofiq namunaviy jadval asosida shakllantiriladi.

Asosiy vositalarning qoldiq qiymati bo'yicha balans jadvali mazkur Uslubiy nizomning 2-ilovasiga muvofiq namunaviy jadval asosida shakllantiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida yil oxirida asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha mavjudligi jadvali mazkur Uslubiy nizomning 3-ilovasiga muvofiq namunaviy jadval asosida shakllantiriladi.

4. Asosiy vositalar balansi boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha shakllantiriladi.

Asosiy vositalar balansini shakllantirishning asosiy tamoyili hisobot yili boshi va oxiridagi asosiy vositalar qiymatini hamda uning yil davomidagi o'zgarishini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida aks ettirishdan iborat.

5. Korxona va tashkilotlar yil boshiga asosiy vositalar qiymatini hisobga olish uchun o'z siyosatlarini aniqlash maqsadida asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati bo'yicha yoki qayta baholash qiymati bo'yicha modellardan foydalanishi mumkin.

6. Asosiy vositalarning sotib olinishi (ishga tushirilishi) korxona va tashkilotlar tomonidan yil davomida kiritilgan yangi asosiy vositalar yoki mamlakat ichida ilgari asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan boshqa bir korxona va tashkilotlarning balansidagi asosiy vositalarni sotib olish yoki beg'araz olishdan iborat.

7. Korxona va tashkilotlar ishlab chiqarish quvvatini oshirish va uni kengaytirish maqsadida mavjud aktivlarni to'ldirib, yangi asosiy vositalarni sotib olishni boshlaydi. Olingan asosiy vositalarni qabul qilish va ishga tushirishni belgilaydigan ko'rsatkich yangilanish koeffitsiyenti bo'lib, u quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Kr = \frac{An}{Aey}, \quad (1)$$

bu yerda,

Kr – asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti;

An – yil davomida ishga tushirilgan asosiy vositalar qiymati;

Aey – yil oxiridagi jami asosiy vositalar qiymati.

8. Korxona va tashkilotlar tomonidan yil davomida asosiy vositalar sotilishi, tabiiy yoki texnogen ofatlar, avtohalokatlar, yong'inlar, kutilmagan yo'qotishlar va hokazolar natijasida asosiy vositalar chiqib ketishi (tugatilishi) mumkin.

Asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi (tugatilishi)ni belgilaydigan ko'rsatkich chiqib ketish (tugatilish) koeffitsiyenti bo'lib, u quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Kl = \frac{Al}{Aby}, \quad (2)$$

bu yerda,

Kl – asosiy vositalarning chiqib ketish (tugatilish) koeffitsiyenti;

Al – tugatilgan asosiy vositalar qiymati;

Aby – yil boshida mavjud bo'lgan jami asosiy vositalar qiymati.

9. Yangidan foydalanishga topshirilgan asosiy vositalarga amortizatsiya ajratilmaganligi sababli asosiy vositalar balansidagi yangi asosiy vositalarni ishga tushirishning statistika ko'rsatkichlari boshlang'ich va qoldiq qiymati bo'yicha teng bo'ladi.

Asosiy vositalar balansida hisobot yili oxirida mavjud bo'lgan jami asosiy vositalarning qiymati, hisobot yili boshida mavjud bo'lgan jami asosiy vositalarning qiymati hamda ishga tushirilgan asosiy vositalar qiymati yig'indisi bilan tugatilgan asosiy vositalar qiymati ayirmasiga tengdir.

$$Aey = Aby + An - Al, \quad (3)$$

bu yerda,

Aey – hisobot yili oxirida mavjud bo'lgan jami asosiy vositalarning qiymati;

Aby – hisobot yili boshida mavjud bo'lgan jami asosiy vositalarning qiymati;

An – ishga tushirilgan asosiy vositalar qiymati;

Al – tugatilgan asosiy vositalar qiymati.

Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$A = \frac{Aby + Aey}{2}, \quad (4)$$

bu yerda,

A – asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati;

Aby – hisobot yili boshida mavjud bo'lgan jami asosiy vositalarning qiymati;

Aey – hisobot yili oxirida mavjud bo'lgan jami asosiy vositalarning qiymati.

3-bob. Asosiy vositalar balansini baholash uchun axborotlar manbai

10. Asosiy vositalar balansini shakllantirish uchun axborot manbai bo'lib, har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturida bajarilishi nazarda tutilgan keng ko'lamdagi axborot resurslari xizmat qiladi.

Jadvallarni ishlab chiqish uchun “Asosiy vositalarning mavjudligi va harakati hamda boshqa nomoliyaviy aktivlar to'g'risida hisobot” kabi asosiy vositalarning mavjudligi, harakati va tarkibi to'g'risidagi rasmiy statistika ma'lumotlaridan; “Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti”, “Nodavlat notijorat tashkilotning faoliyati to'g'risida hisobot”, “Notijorat tashkilotning faoliyati to'g'risida hisobot”, “Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot” kabi statistika hisoboti shakllari bo'yicha asosiy vositalarning mavjudligi va harakati to'g'risidagi jamlangan birlamchi statistika ma'lumotlari; Iqtisodiyot va moliya vazirligining “Nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risidagi hisoboti”, “Sug'urta tashkilotlari faoliyati to'g'risidagi hisoboti”, Markaziy bankning “Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisoboti” kabi ma'muriy ma'lumotlardan foydalaniladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

11. Asosiy vositalar balansini shakllantirish olingan ma'lumotlarni qayta guruhlash bilan bog'liq bosqichlarda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda xo‘jalik subyektlariga tegishli bo‘lgan asosiy vositalar iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy vositalarni taqsimlash jadvallariga to‘ldiriladi.

Asosiy vositalarni taqsimlash bo‘yicha olingan jadvallar jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan asosiy vositalarning mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan to‘ldiriladi.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan asosiy vositalar sotib olish narxi bo‘yicha hisobga olinadi va quyidagicha baholanadi:

foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi turar-joy binolari, shu jumladan dala hovlilar, bog‘ va boshqa uylar, xo‘jalik inshootlari qiymati “Jismoniy shaxslar tomonidan obyektlar qurilishi to‘g‘risidagi hisobot” kabi statistika hisoboti shaklidagi jamlangan birlamchi statistika ma’lumotlari asosida aniqlanadi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o‘zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi);

hisobot davrida sotib olingan turar-joy binolarining qiymati “Uy-joy fondi to‘g‘risida hisobot” kabi idoraviy statistika hisoboti shaklidagi fuqarolarga qarashli xususiy mulk asosidagi uy-joy fondining harakati to‘g‘risidagi jamlangan birlamchi statistika ma’lumotlari asosida hamda “Investitsiya faoliyati, bino va inshootlarni foydalanishga topshirish to‘g‘risida hisobot” kabi statistika hisoboti shaklidagi jamlangan birlamchi statistika ma’lumotlari asosida aniqlanadi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o‘zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

Chorva mollarining qiymati aholi xonadonlaridagi chorva mollari soni va bir bosh chorva molining o‘rtacha balans qiymati to‘g‘risidagi rasmiy statistika ma’lumotlari, ko‘p yillik o‘simliklar aholi xonadonlaridagi ko‘p yillik o‘simliklar maydoni hamda bir gektar o‘simliklar qiymati “Qishloq xo‘jaligi faoliyati to‘g‘risida hisobot” va “Ferma xo‘jaligi faoliyati to‘g‘risida hisobot” kabi statistika hisoboti shakllari to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida aniqlanadi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o‘zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

Ikkinchi bosqichda asosiy vositalarning boshlang‘ich va qoldiq qiymati bo‘yicha balanslar shakllantiriladi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

12. Asosiy vositalarni hisobga olishda ularning aktiv sifatida tan olingan paytini belgilash, ularning mazkur aktivlarga nisbatan qo‘llanilishi shart bo‘lgan balans qiymatini va amortizatsiyani hisoblash usullarini belgilash, shuningdek, asosiy vositalarning balans qiymatidagi boshqa o‘zgarishlarni va ularning chiqib ketishi hisobiga moliyaviy natijalarni belgilash hamda hisobga olish asosiy qoidalar hisoblanadi.

13. Asosiy vositalar balansini yuritishda asosiy vositalarning ishga tushirilishi, foydaliligi, yangilanishi, eskirishi, tugatilishi asosiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Asosiy vositalarning mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar kapitalning

intensivligi, kapital-mehnat nisbati, kapital unumdorligi va boshqa muhim iqtisodiy hisob-kitoblarni hisoblash uchun ishlatiladi.

14. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari “Statistik ma’lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo’yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni O'zRQ-707 11- avg. 2021- y.
2. Milliy hisoblar tizimi – 2008// Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa komissiyasi, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki, 2009- y.
3. European system of accounts – 2010// Eurostat, 2013.
4. BMT YIKning Milliy hisoblar tizimi – 2008 ni Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo hamda Janubi-Sharqiy Yevropa davlatlarida joriy qilish bo'yicha tavsiyalari// BMT YEIKning Statistika bo'limi, 2013- y.
5. Энциклопедия статистических терминов// Росстат, 2011г.
6. Методика по формированию баланса основных средств и приравненных к ним активов, утвержденная постановлением Национального статистического комитета Республики Беларусь, 2021.
7. Официальная статистическая методология расчета текущей рыночной стоимости основных фондов по их видам, утвержденная приказом Росстата от 16 апреля 2021 г. №216.
8. Методика формирования баланса активов и пассивов, утвержденная приказом Председателя Комитета по статистике Министерства национальной экономики Республики Казахстан от 21 ноября 2016 года № 268.
9. Statistika ko'rsatkichlariga qisqacha uslubiy tushuntirishlar// O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.-T., 2020- y.

“Asosiy vositalarning holati va harakatini
hisoblash bo‘yicha Uslubiy nizom”ga
1-ILOVA

Asosiy vositalarning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati bo‘yicha balans jadvali
(shartli ma’lumotlar)

joriy narxlarda, mln. so‘m

IFUT-2 kodlari	Iqtisodiy faoliyat turlari	Yil boshiga asosiy vositalar mavjudligi	Hisobot davrida kelib tushgan asosiy vositalar - jami	Shu jumladan:		Hisobot yilida chiqib ketgan asosiy vositalar - jami	Shu jumladan:		Yil oxiriga asosiy vositalar mavjudligi
				yangi asosiy vositalarning ishga tushirilishi	boshqa manbalar bo‘yicha asosiy vositalarning kelib tushishi		tugatilgan asosiy vositalar	boshqa manbalar bo‘yicha asosiy vositalar- ning chiqib ketishi	
	Jami asosiy vositalar	990 975 831,1	284 855 224,6	173 631 060,9	111 224 163,6	113 043 104,0	30 059 527,9	82 983 576,0	1 162 787 951,7
A	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	68 015 415,1	36 551 262,1	26 268 152,1	10 283 109,9	22 105 093,6	12 700 562,7	9 404 530,8	82 461 583,6
B,C,D,E	Sanoat	288 753 272,3	111 404 819,1	70 324 878,9	41 079 940,2	45 851 764,9	9 299 460,5	36 552 304,4	354 306 326,5
F	Qurilish	24 345 710,0	10 845 854,3	9 305 103,8	1 540 750,5	2 794 761,7	873 161,0	1 921 600,7	32 396 802,6
G	Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash	18 771 739,1	8 027 789,9	6 232 112,1	1 795 677,8	2 574 616,6	679 900,0	1 894 716,6	24 224 912,4
I	Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	6 689 536,2	1 698 841,5	1 418 171,1	280 670,4	304 233,8	73 897,3	230 336,5	8 084 143,9
H	Tashish va saqlash	93 984 509,3	20 203 500,4	10 032 222,0	10 171 278,4	7 121 555,8	1 679 401,0	5 442 154,8	107 066 453,9
J	Axborot va aloqa	21 076 528,3	4 774 033,3	2 832 656,7	1 941 376,6	1 045 396,4	834 468,9	210 927,5	24 805 165,2
K	Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	10 353 934,3	3 215 240,4	2 034 950,3	1 180 290,1	1 186 253,5	250 417,4	935 836,1	12 382 921,2
L	Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	367 622 081,8	52 080 993,3	20 123 743,6	31 957 249,7	17 090 045,2	1 130 881,9	15 959 163,3	402 613 029,9
M	Professional, ilmiy va texnik faoliyat	5 701 566,3	5 005 418,5	2 732 841,5	2 272 577,0	567 804,1	189 238,4	378 565,7	10 139 180,7
N	Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish	6 746 729,0	2 608 658,9	2 312 739,9	295 919,0	843 587,2	146 671,8	696 915,4	8 511 800,7
O	Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta‘minot	30 142 846,0	13 778 218,7	9 517 811,6	4 260 407,1	4 823 859,0	1 337 106,2	3 486 752,8	39 097 205,7
P	Ta‘lim	22 563 532,2	8 009 854,6	4 684 126,6	3 325 728,0	3 876 544,8	328 091,7	3 548 453,1	26 696 842,0
Q	Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	15 253 612,1	4 587 293,9	4 154 767,5	432 526,4	1 447 857,2	359 529,6	1 088 327,6	18 393 048,8
R	San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	9 267 100,8	1 490 470,7	1 283 887,1	206 583,6	1 160 183,0	110 168,7	1 050 014,3	9 597 388,5
S	Boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish	1 687 718,3	572 975,0	372 896,1	200 078,9	249 547,2	66 570,8	182 976,4	2 011 146,1

“Asosiy vositalarning holati va harakatini
hisoblash bo‘yicha Uslubiy nizom”ga
2-ILOVA

Asosiy vositalarning qoldiq qiymati bo‘yicha balansi jadvali
(shartli ma’lumotlar)

joriy narxlarda, mln. so‘m

IFUT-2 kodlari	Iqtisodiy faoliyat turlari	Yil boshiga asosiy vositalar mavjudligi	Hisobot davrida kelib tushgan asosiy vositalar – jami	Shu jumladan:		Hisobot yilida chiqib ketgan asosiy vositalar – jami	Shu jumladan:			Yil oxiriga asosiy vositalar mavjudligi
				yangi asosiy vositalar- ning ishga tushirilishi	boshqa manbalar bo‘yicha asosiy vositalar- ning kelib tushishi		hisobot yilida asosiy vositalar- ning eskirishi — jami	tugatilgan asosiy vositalar ning qoldiq qiymati	boshqa manbalar bo‘yicha asosiy vositalar ning chiqib ketishi	
	Jami asosiy vositalar	743 296 763,6	268 282 788,5	173 631 060,9	94 651 727,5	145 988 776,9	63 243 693,5	19 345 661,7	63 399 421,8	865 590 775,2
A	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	62 058 931,8	35 019 043,1	26 268 152,1	8 750 890,9	19 660 078,0	1 873 100,5	10 601 946,3	7 185 031,3	62 058 931,8
B,C,D,E	Sanoat	198 482 668,0	105 283 908,0	70 324 878,9	34 959 029,1	57 070 077,4	23 510 148,5	5 633 968,1	27 925 960,8	246 696 498,6
F	Qurilish	16 185 144,7	10 616 282,4	9 305 103,8	1 311 178,6	3 542 662,5	2 014 391,1	60 168,6	1 468 102,8	23 258 764,6
G	Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta’minlash	14 075 566,4	7 760 233,9	6 232 112,1	1 528 121,8	2 947 941,9	1 398 583,4	101 795,0	1 447 563,5	18 887 858,4
I	Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	5 219 631,3	1 657 021,5	1 418 171,1	238 850,4	593 528,2	408 315,4	9 235,8	175 977,0	6 283 124,6
H	Tashish va saqlash	52 741 727,0	18 687 980,0	10 032 222,0	8 655 758,0	10 545 075,7	6 109 523,3	277 746,1	4 157 806,3	60 884 631,3
J	Axborot va aloqa	8 682 800,5	4 484 768,1	2 832 656,7	1 652 111,4	2 407 119,4	1 870 882,0	375 088,9	161 148,5	10 760 449,2
K	Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	7 527 151,0	3 039 377,2	2 034 950,3	1 004 426,9	2 093 164,3	1 257 528,0	120 657,5	714 978,8	8 473 363,9
L	Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	318 059 767,7	47 319 363,2	20 123 743,6	27 195 619,6	29 578 745,9	17 049 194,5	336 750,5	12 192 800,9	335 800 385,0
M	Professional, ilmiy va texnik faoliyat	2 967 382,3	4 666 804,6	2 732 841,5	1 933 963,1	1 072 320,0	749 687,9	33 407,9	289 224,2	6 561 866,9
N	Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish	4 413 622,1	2 564 566,9	2 312 739,9	251 827,0	1 043 664,0	489 311,2	21 909,5	532 443,3	5 934 525,0
O	Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta’minot	21 062 712,0	13 143 418,0	9 517 811,6	3 625 606,4	9 057 990,0	5 136 519,2	1 257 591,6	2 663 879,2	25 148 140,0
P	Ta’lim	13 768 728,4	7 514 321,3	4 684 126,6	2 830 194,7	2 717 714,3	-162 785,9	169 482,0	2 711 018,2	18 565 335,4
Q	Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	10 331 918,0	4 522 847,3	4 154 767,5	368 079,8	2 240 251,6	1 135 368,2	273 401,1	831 482,3	12 614 513,7
R	San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	6 721 908,8	1 459 689,7	1 283 887,1	175 802,6	1 145 997,1	287 945,8	55 840,4	802 210,9	7 035 601,4
S	Boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish	997 103,6	543 163,3	372 896,1	170 267,2	272 446,6	115 980,4	16 672,4	139 793,8	1 267 820,3

“Asosiy vositalarning holati va harakatini
hisoblash bo‘yicha Uslubiy nizom”ga
3-ILOVA

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida yil oxirida asosiy vositalarning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati bo‘yicha mavjudligi jadvali

joriy narxlarda, mln. so'm

[illegible]